

<b>T/r</b>	<b>Hujjat turi</b>	<b>Faoliyat turi</b>
1	Mulkka bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar, tegishli ko'chmas mulk obyektining chizmalari va xaritalari bilan birga	Ishlab chiqarish
2	Ishlab chiqarish obyektining pasporti	Ishlab chiqarish
3	Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi	Ishlab chiqarish
4	Yoqilg'i yetkazib berish bo'yicha dastlabki yoki yakuniy shartnoma (faoliyatning kichik turlariga qarab zarur hollarda)	Ishlab chiqarish
5	Litsenziya to'lovining yillik davriy yig'imini to'lash imkoniyatining mavjudligi yuzasidan moliyaviy kafolat, shu jumladan, bank kafolati	Ishlab chiqarish
6	Yagona elektr energetikasi tizimiga ulanish to'g'risida texnik shartlar va ulanish shartnomasi (yangi ishlab chiqaruvchilar uchun)	Ishlab chiqarish
7	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasining ishlab chiqarish obyektlarida qonunchilik hujjatlari hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga rioya etilishi bo'yicha xulosasi	Ishlab chiqarish
8	Texnik ma'lumotlar, shu jumladan, asosiy texnik xususiyatlar, loyiha obyekt spetsifikatsiyalari, bir chiziqli sxema, obyektning joylashuvi va texnik ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar	Ishlab chiqarish
9	Elektr energetikasi sohasida faoliyat yuritish uchun kamida uch yilni qamrab oluvchi biznes-reja	Ishlab chiqarish
10	Asosiy vositalari ro'yxati va elektr energetikasi sohasida faoliyat turini (kichik turini) yuritish uchun zarur bo'lgan aktivlar mavjudligi to'g'risidagi ma'lumot	Ishlab chiqarish
11	So'nggi uch yil uchun yoki so'nggi uch yil ichida faoliyat boshlagan talabgorlarning moliyaviy hisobotlari	Ishlab chiqarish